

ABDULLA ORIPOV IJODI VA UNDAGI BAZI MUHIM JIHATLAR

Jumanazarova Dilnoza

Nukus davlat pedagogika insituti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti ingliz tili va adabiyot 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada A.Oripov ijodi va she'rlar mohiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Janr, e'tirof, shuur, badiiy, qo'lyozma, jiddiy o'zgartirish, ruhiy olam, xarakter, obraz.

Mustaqillik davri adabiyotida poeziya janri tobora rivojlanib bordi. Poeziyaning rivojlanishida ko'pab yozuvchi va shoirlar qatori jamoat arbobi, serqirra shoir A.Oripov xizmatlari katta. Birinchi marotaba Respublika matboudida Qushcha deb atalgan she'ri chiqqan paytda Abdulla Oripov talaba edi. Shoirning birinchi she'rlar to'plami "Mitti yulduz" 1965-yilda chop etilgan. Bu kitob nashr etilishi bilan omma orasiga keng tarqalgan va olimlarning e'tirofiga sazovor bo'lgan. Jumladan, O'zbekiston madaniyati gazetasida adabiyotshunos olim M.Olimov "Abdulla she'rlari qalbga nurday singadi-yu, nogahiy sukunatni tilka-pora qilib tug'yon ko'taradi. Yurakni o'rtab, shuurga chaqmoqdek nur beradi",- deb yozgan edi Mitti yulduz haqidagi taqrizida.

Shoir ijod olamiga kirib kelgan ilk damlaridanoq so'zga, badiiy ijodga yuksak hurmat va nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Abdulla Oripov ijodida har bir so'z uzukka qo'yilgan ko'zdek porlab turishi bejiz emas. "Ilk to'plamidagi deyarli barcha she'rlar o'z davrida yoshlarning qalb nidosiga aylanib ketgan edi. Shoir qo'lyozmalari arxivini tekshirganimizda, har bir she'rning o'n marotalab qayta ko'chirgani yu, har bir yangi nusqada jiddiy o'zgartirishlar kiritganlarga ko'p guvoh

bo'ldik."

Xususan aytib o'tishimiz joiz, A.Oripovning bundan tashqari "Tilla baliqcha", "Dorvoz", "Ona", "Birinchi muhabbatim", "Iltijo", "Sog'inch", "Shoir umri", "Inson hurmati", "Dunyoni qizg'anma" kabi she'rlari bilan birga "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal", "Ranjkom" singari dostonlari ham nashr etildi.

A.Oripov O'zbek adabiyotiga o'zining ohanglari, o'z ifoda usuli, borliqqa tabiatga, jamiyatga, odamlarning ruhiy olamiga o'z qarashlariga ega bo'lgan lirik qahramoni bilan kirib keldi. Shoir she'rlarida lirik qahramon ko'p qirrali va shu bilan birga uyg'un obraz sifatida nomayon bo'ladi. Uning lirik qahramoni evolyusiyasini she'rda o'rta qo'yilgan muammolar, ularning mazmunini ochib berish shoir she'riyatidagi asosiy motivlar va kayfiyatlarni, she'r manbaalarini aniqlash orqali tushinish mumkin.

Lirik qahramon bilan lirik xarakter bir-biridan tamomila boshqa-boshqa tushinchalardir. Temir odam she'rini yaratishda shoir inson kashf etgan "temir odam"-robot detalidan mohirona foydalanib, hissiz, tuyg'usiz, manqurt kimsalar haqida so'z yuritadi. She'rdagi:

Temir odam yasab yurguncha ko'proq "Jonli temir"larni o'ylangiz ustoz- degan xitob lirik qahramonning da'vatidir. Nafratni, ishqni, mehrni bilmaydigan kimsa esa-shoir yaratgan tip darajasiga ko'tarilgan lirik xarakterdir.

Oltmishinchi yillarning o'rtalarida yozilgan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "Sarob", "Yuzma-yuz", "O'zbekistonda kuz", "Biznikilar", "Bahor", "Sovg'a" kabi she'rlarida va "O'zbekiston" qasidasida milliy o'zlikni anglash, O'zbekiston istiqloli, xalq va vatan taqdiri, "million elatlarga sochilgan o'zbekning dardi" hasratlari, muammolari ilk bora o'tkir qilib qo'yildi. Bu she'rlar uchun umumiy bir ohang, umumiy g'oya- bu hurlik, milliy uyg'onish g'oyasidir.

Shunisi ahamiyatliki, O'zbekistonga bo'lgan muhabbat baland parvoz misralar, oddiy madhiyalar bilan emas, balki lirik qahramon qalbining tub-tubidan otilib chiqqan kechinmalar, bezovta o'ylar tarzda inkishof etiladi. Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun, Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!- misralariga asoslanib, kishi o'z vatanining

boyliklari, go‘zalligi uchungina sevmasligi lozim degan fikr kelib chiqishi mumkin. Lekin bu fikr ham tugal aniq fikr emas.

Shoirning lirikasidagi yana bir katta mavzu- bu inson mavzusi, inson haqidagi yangi haqiqatlarni ochib berish, insonni bugun murakkabligi bilan tasvirlash muammosidir.

Koinot gultoji insondir azal,
Undanda eng oliy tafakkur, amal.
Xatto u tubanlik ichra ham tanho,
Ya falak, ijoding buncha mukammal!

Abdulla Oripov butun ijodi mana shu inson, uning sir-sinoati, anglab bo‘lmas sehr-u-jodusi, yuksakligi va tubanligi qarshisida lol bo‘lgan qalbning hayratidan tassurot qoldiradi.

Qancha-qancha sir yashar har kimning bisotidan,
Shul sabab ul Insondir shul sabab ul Zot erur.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz joizki, Abdulla Oripovning har bir she’ri sinchiklab o‘rganishga munosib asarlardir. Har bir asari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi. Chunki, uning she’rlari yuksak e’tiroflarga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Oripov.Mitti yulduz.Toshkent.1965
2. A.Oripov.Yuzma-yuz.G.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.Toshkent.1978.
3. Qalb sadosi gazetasi
4. A.Oripov.Tanlangan asarlar. 4 Jildlik.1- jild.She’rlar va dostonlar. Toshkent.2000